


V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2022- yilning yanvar–iyun holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 25 528 tani tashkil qildi. Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlik korxonasi va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 5 050 ta, Xiva shahrida 2 218 ta, Xiva tumanida 1 959 ta, Urganch tumanida 2 944 ta, Xonqa tumanida 1 963 ta, Yangiariq tumanida 1 370 ta, Hazorasp tumanida 1 518 ta, Gurlan tumanida 1 729 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 1 938 ta, Bog‘ot tumanida 1 589 ta, Shovot tumanida 1 397 ta, Tuproqqal‘a tumanida 602 ta va Yangibozor tumanida 1 251 tani tashkil qildi.


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**
2022-yil yanvar – iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning (33,3 foizi), sanoat tarmog‘ida (23,9 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (20,0 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (5,0 foiz) tashkil etilgan.

2022-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng ko‘p Urganch shahrida 31,3 birlikda, Xiva shahrida 20,6 birlikda, Yangibozor tumanida 12,4 birlikda, Urganch tumanida 12,5 birlikda, Tuproqqal‘a tumanida 9,5 birlikda, Xiva tumanida 11,3 birlikda, Gurlan tumanida 9,9 birlikda Yangiariq tumanida 9,8 birlikda, Qo‘shko‘pir, tumanida 9,8 birlikda bo‘lib, o‘rtacha ko‘rsatkich 6-9 birlik oralig‘ida Xonqa, Shovot, Bog‘ot, Hazorasp tumanlarida ushbu ko‘rsatkich past bo‘lib qolmoqda.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2022- yil 1- iyul holatiga ro'yxatga olingan	2021- yil yanvar - iyun	
		tashkil topdi	tugatildi
Viloyat bo'yicha:	24 259	2 943	729
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	5050	384	170
Xiva	2218	202	30
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	1589	232	49
Gurlan	1729	238	49
Qo'shko'pir	1938	302	63
Urganch	2944	267	58
Hazorasp	1518	78	22
Tuproqqal'a	602	221	51
Xonqa	1963	213	40
Xiva	1959	211	23
Shovot	1397	189	94
Yangiariq	1370	157	44
Yangibozor	1251	202	30

2022-yil yanvar- iym oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 2 943 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 384 ta, Urganch tumanida 267 ta, Xiva shahrida 202 ta, Xonqa tumanida 213 ta, Qo'shko'pir tumanida 302 ta, Hazorasp tumanida 78 ta, Xiva tumanida 211 ta, Shovot tumanida 189 ta, Yangiariq tumanida 157 ta, Gurlan tumanida 238 ta, Bog'ot tumanida 232 ta, Yangibozor tumanida 202 ta va Tuproqqal'a tumanida 221 tani tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 68,8 foizi (2021- yil yanvar-iyunda 72,1 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1302,1 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 15,6 foizi) tashkil qildi;

- 8 495,3 mlrd. soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) boʻlib, oʻsish surʼati 98,9 foizni (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari yalpi mahsulotining 103,5 foizi) tashkil qildi;

- 1314,5 mlrd. soʻmlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 53,7 foizi) oʻzlashtirildi va 2021- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 70,2 foizni tashkil qildi;

- 1 822,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 90,2 foizi) bajarildi va 2021- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 99,0 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 104,8 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 81,9 foizi), yoʻlovchi aylanmasining esa 103,9 foizga (umumiy yoʻlovchi aylanmasining 95,9 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 77,5 foizi yoki 4 309,0 mlrd. soʻmi (oʻsish 100,7 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 63,0 foizi yoki 2 974,5 mlrd. soʻmi (oʻsish 110,6 foiz) shakllantirildi;


- 65,8 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 52,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 85,4 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 35,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi

(2022- yilning yanvar- iyunida)

	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	8 495,3	98,9
Sanoat	1302,1	15,6
Qurilish	1 822,0	90,2
Chakana savdo	4 309,0	77,5
Yuk tashish, mln tn.	16,1	95,0
Yo‘lovchi tashish, mln.kishi	198,5	94,3
Eksport, mln. AQSh doll.	65,8	52,1
Import, mln. AQSh doll.	85,4	35,1

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (foizda)



Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 953,6 mlrd. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

2022- yilning yanvar - may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

	<i>Foyda, zarar (-), mlrd. so'm</i>	<i>2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan % da</i>
Jami	953,6	7,7 m.
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	-	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	932,6	9,2 m.
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	-0,2	-
Qurilish	1,9	89,1
Savdo	13,1	147,0
Tashish va saqlash	4,8	36,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-
Axborot va aloqa	-	-
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	-	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	1,4	2,2 m.
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	0,1	43,9 m.
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	1,2	465,2 m.
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-
Boshqalar	0,3	49,7

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalarini, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

**2022- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida
yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan % da</i>
Xorazm viloyati	953,6	111,3
Urganch shahar	29,7	141,6
Xiva shahar	0,3	117,0
<i>tumanlar;</i>		
Bog‘ot	25,3	49,4 m.
Gurlan	0,4	7,9 m
Qo‘shko‘pir	15,6	130,2
Urganch	2,1	21,6
Hazorasp	0,7	90,0
Tuproqqal‘a	50,7	216,9
Xonqa	5,8	106,2
Xiva	0,3	117,0
Shovot	779,4	21,3 m.
Yangiariq	31,1	1845,3 m.
Yangibozor	1,0	139,6


Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Shovot tumani – 779,4 mlrd. so‘m (jami foydaning 21,3 m.), Tuproqqal‘a tumani – 50,7 mlrd. so‘m (216,9%), va Yangiariq tumani – 31,1mlrd. so‘m (1845,3 m.)ga to‘g‘ri keladi.

Zararlar. 2022- yilning yanvar-may oylarida 8 ta korxonalar va tashkilotlar 3,9 mlrd. so‘m zararga yo‘l qo‘ydi. Zararning asosiy qismi Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish 2,4 mlrd. so‘m, Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 1,1 mlrd. so‘m, Ishlab chiqaradigan sanoat 0,3 mlrd. so‘m, ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash 0,2 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keladi.

2022- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar summasi</i>	
		<i>mln. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>
Jami	8	3951,8	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	2	260,0	6,5
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1	1095,2	27,7
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	1	2356,9	59,6
Qurilish	2	52,6	1,3
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	2	187,1	4,9

2022- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari



2022- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari


	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko'rgan korxonalarining ulushi, % da</i>	<i>Zarar summasi, mln. so'm</i>
Xorazm viloyati	8	100,0	3951,8
Urganch shahar	6	95,8	3786,7
Urganch tumani	1	4,1	165,0
Shovot	1	0,1	0,1

2022- yil 1-iyun holatiga zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlari Urganch shahri, Urganch tumani, Shovot tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati¹⁾

2022-yil 1-iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy xajmi 2137,2 mlrd. soʻmni tashkil qildi, shundan muddati oʻtgan – 28,9 mlrd. soʻm yoki jami qarzdorlikning 1,3% ini tashkil qildi. Muddati oʻtgan debitor qarzdorlik 2021-yilning 1-iyun nisbatan solishtirilganda 101,7% ga toʻgʻri keladi.

2022-yil 1-iyun holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi (jami nisbatan % da)



Eng koʻp debitor qarzdorlik O'zbekiston to'qimachilik va tikuv- trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi – 1121,9 mlrd. soʻm (viloyat boʻyicha jami qarzdorlikdan 52,5 foiz), "Uzbekistan Airports" aksiyadorlik jamiyati– 55,0 mlrd. soʻm (2,6 foiz), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ – 46,0 mlrd. soʻm (2,1 foiz), "O'ztransgaz" AJ – 13,0 mlrd. soʻm (0,6 foiz), O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi – 11,6 mlrd. soʻm (0,5 foiz) kuzatilmogʻda.

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, maxsulot ishlab chiqarivchi qishloq xo'jaligi korxonalar, fermer va dexqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

**2022- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida
yakuniy debitor qarzdorlik natijalari**

	<i>Debitor qarzdorlik (-), mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan % da</i>
Xorazm viloyati	2137,2	137,8
Urganch shahar	364,4	59,9
Xiva shahar	1,9	6,5 m.
<i>tumanlar;</i>		
Bog‘ot	115,2	2,7 m.
Gurlan	102,1	65,1
Qo‘shko‘pir	81,2	2,5 m.
Urganch	97,0	46,8
Hazorasp	11,5	54,6
Tuproqqal‘a	166,2	185,7
Xonqa	194,6	198,3
Xiva	20,4	2,8 m.
Shovot	695,3	3,2 m.
Yangiariq	192,5	3,0 m.
Yangibozor	94,8	12,0 m.

Hududlar kesimida debitor qarzdorlik asosiy qismi Shovot tumani- 695,3 mlrd. so‘m jami debitor qarzdorlikning (3,2 m.) ga to‘g‘ri keladi.


Urganch shahri – 364,4 mlrd. so‘m (59,9 %) va Xonqa tumani– 194,6 mlrd. so‘m (198,3 %) ga to‘g‘ri keladi.

Korxonalar va tashkilotlarning kreditorlik qarzdorligi holati¹⁾

2022- yil 1-iyun holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy xajmi 2363,5 mlrd. soʻmni tashkil qildi, shundan muddati oʻtgan – 0,2 mlrd. soʻm yoki jami qarzdorlikning 0,008 % ini tashkil qildi. Muddati oʻtgan kreditor qarzdorlik 2021- yilning 1- iyungacha nisbatan solishtirilganda 86,5% ga toʻgʻri keladi.

2022 - yil 1- iyun holatiga vazirlik va idoralarning kreditor qarzdorligi

(jami nisbatan foizda)



Eng koʻp kreditor qarzdorlik O'zbekiston to'qimachilik va tikuv- trikotaj sanoati korxonalarini uyushmasi –699,4 mlrd. soʻm (viloyat boʻyicha jami qarzdorlikdan 29,6 foiz), "Uzbekistan Airports" aksiyadorlik jamiyati– 172,2 mlrd. soʻm (7,3 foiz), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ– 163,9 mlrd. soʻm (6,9 foiz), Oʻzbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish vazirligi – 30,2 mlrd. soʻm (1,3 foiz) kuzatilmoqda.

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, maxsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini, fermer va dexqon xo'jaliuklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalari.

**2022-yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida
yakuniy kreditor qarzdorlik natijalari**

	kreditor qarzdorlik (-), mlrd. so‘m	2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan % da
Xorazm viloyati	2363,5	174,9
Urganch shahar	626,6	116,8
Xiva shahar	0,4	4,6 m.
<i>tumanlar;</i>		
Bog‘ot	101,3	173,7
Gurlan	116,8	222,0
Qo‘shko‘pir	91,1	4,4 m.
Urganch	196,3	64,9
Hazorasp	10,7	53,5
Tuproqqal‘a	41,6	36,0
Xonqa	33,3	56,5
Xiva	24,9	302,8
Shovot	424,5	291,4
Yangiariq	576,9	33,1 m.
Yangibozor	119,1	7,7 m.

Hududlar kesimida kreditor qarzdorlik asosiy qismi Urganch shahri - 626,6 mlrd. so‘m (jami debitor qarzdorlikning 116,8 %), Shovot tumani – 576,9 mlrd. so‘m (33,1m) va Shovot tumani – 424,5 mlrd. so‘m (291,4%) ga to‘g‘ri keladi.